



**INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINI
IFODALOVCHI BADIY VOSITALAR TARJIMASIDAGI
MUAMMOLAR (SOMERSET MOEMNING "OY VA SARIQ
CHAQA" ROMANI MISOLIDA)**

Jonuzoqova Chaman Murodulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va

Adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10347798>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2023

Accepted: 10th December 2023

Online: 11th December 2023

KEY WORDS

Ayol obrazi, pragmatik muammo, badiiy vosita, kontekst, deskriptiv usul, dominant ma'no.

ABSTRACT

Maqolada badiiy asarlarda ayol obrazini ifodalovchi tasvirlarni tarjima qilishda yuzaga keluvchi pragmatik muammolar misollar orqali ochib berilgan. Bunda Somerset Moemning "Oy va Sariq chaqa" romani tahlil uchun obyekt qilib olindi.

Tarjima bugungi kunda nafaqat xalqaro ma'lumot almashish vositasi, balki xalqlar o'rtasida umumbashariy g'oyalar, madaniy meros va xalqning uzoq yillar davomida shakllanib kelgan donoligini ham keng miqyosda baham ko'rish deganidir.

Badiiy tarjima hamisha tarjimon olimlar o'rtasida munozaralarga sabab bo'luvchi dolzarb masala bo'lib kelgan. Ba'zi nazariyotchilarning qarashlariga ko'ra, har qanday badiiy asar faqat asl yaratilgan tilida o'qilishi kerak, ayniqsa asar nazmiy bo'lsa. Badiiy tarjimaning yana bir xususiyati shundaki, bu turdagi tarjima texnik, ilmiy, yuridik va boshqa turdagi tarjima sohalaridan farqli tarjimonning badiiy va estetik munosabatini talab qiladi.

Lingvistik bilimga ega bo'lgan tarjimon uchun boshqa matn turlari tarjimasida maxsus atamalar yetarli bo'lsa, adekvatlikni ta'minlash nisbatan oson kechadi. Lekin adabiy janr lingvistik birlikning barcha kontekstual ma'nolari va ma'no darajalarini farqlay olishi lozim.

Tarjima qilingan badiiy asar asl matn bilan baravar mavqe olgani holda u adabiy muhitni boyitadi, shu bilan birga milliy adabiyotni mustahkamlashga ham hissa qo'shadi. Milliy adabiyotda badiiy tarjimaning vazifasi haqida gap ketganda tarjima qilingan adabiy asarlar badiiy va madaniy vazifalarni bajara boshlashini ta'kidlash lozim. Xususan, tarjima qilingan adabiy asarlar o'ziga xos xorijiy adabiyot va madaniyatlar haqida doimiy ma'lumot tashuvchidir.

Bu jarayonda ayniqsa badiiy tarjimada pragmatik jihatdan adekvatlikni saqlash tarjimaning biz yuqorida sanab o'tgan vazifalarini to'la bajarishi uchun asosiy omillardan biridir. Lingvist J. Layonsning fikriga ko'ra, "pragmatika tinglovchini ma'lumotni so'zlovchi istagandek qabul qilishga undash uchun muloqotdagi muayyan lingvistik birliklarning qo'llanilishini tavsiflaydi."¹

¹ John Layons. Language and linguistics. Cambridge University press. 1981. P. 46



Maqolada ayol obrazini ochib berish uchun qo'llanilgan badiiy vositalarning tarjimada berilish jarayonini Somerset Moemning "Oy va sariq chaqa" asarida qo'llanilgan badiiy tasvirlar va ularning tarjima xususiyatlari misolida ko'rib chiqamiz.

Asarda Roza Uoterfordni tasvirlash uchun "unda ... ayollarga xos **nazokat** uyg'unlashgandi..." sifatlari beriladi. Bu tasvir asliyatda "... a feminine **perversity**..." shaklida keladi. Yozuvchi ayollarga xos sho'xlik va o'ynoqilikni nazarda tutadi. Ingliz adabiyoti tasvirlarini to'la anglovchi o'quvchini nigohi bilan qaralganda, "Female perversion" atamasi Estela Veldon tomonidan 1992 yilda qo'llanilib o'zi va o'zgalarga nisbatan shafqatsizlik qiluvchi, ozor yetqazuvchi ayolni ifodalashini hisobga olishimiz zarur.[5] Yozuvchi ayolga aynan shafqatsiz sifatini bermoqchi bo'lgan degan fikrdan yiroqmiz. Lekin bu sifat to'la ijodiy fazilatni ham bermaydi. Tarjimada qo'llanilgan "nazokat" sifati bu ma'nodan biroz chalg'itadi va o'quvchiga sho'xlik emas, bosiqlik tasavvurini uyg'otadi.

Keyingi misollarda esa tarjimon pragmatik xususiyatlarni saqlab qolgan: "Roza Uoterford **beadabroq** edi - Rose Waterford was a **cynic**." Bunda sifatning darajali shaklda qo'llanilishining o'ziyoq asar atmosferasini saqlashga yordam bergan. Agarda tasvirni to'g'ridan to'g'ri berganimizda bu ayolga nisbatan juda keskin tasavvur uyg'otardi.

Quyidagi misolda tugal ma'noga ta'sir etmasada bir qadar o'zgarishlar bilan berilgan sifatlarni ko'rishimiz mumkin: jumladan, "It put her in **high spirits**." tarjimada "Bu holat uning so'zlariga favqulodda **keskinlik** bag'ishlardi." deb beriladi. Tarjimonning keskinlik so'zini tanlashi kontekst bilan o'zaro bo'g'liq ekanligini keyingi gaplarda anglab olishimiz mumkin. Tarjimon *in high spirit* so'zini *keskinlik* sifati orqali berilganda so'zning dominant ma'nosi aynan shu sifatni ifoda qilmasada, kontekst bu tarjimini oqlaydi.

"... **jahl** bilan so'zlamoq" esa, "to be **malicious** about." shaklida tarjima qilingan. *Malicious* sifati ham *jahl* deb tarjima qilinganda bu so'z kishining adovatini ifodalashini hisobga olsak, jahl qilmoq va adovat qilmoq fe'llarida o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilishimiz kerak bo'ladi. Ammo bu holatda ham umumiy ma'noga katta o'zgartirish kiritilmaydi.

Yana bir misolda *kulcha yuz* ifodasi (**kulcha yuzdan** kelgan xonim) ayol jozibasini ochib berish uchun tarjimada qo'shib beriladi. Asliyatdagi ayol teri sifatini tasvirlovchi ifoda esa tushurib qoldiriladi (**Her skin was rather sallow**).

Keyingi misolda "to be in the **movement**." ifodasi " ... **modadan** qolishni istamaydi." tarzida berilgan. Bunda yozuvchi ayolning mashhurlar davrasida bo'lish, doimiy o'zgarishlardan xabardorlikka intilish, harakatdagi insonlarning suhbatini olishga bo'lgan chanqoqligiga ishora qiladi. O'zbek tilida bu ma'noni moda so'zi orqali berish o'quvchida dastlab kiyinishning so'ngi urf bo'lgan ko'rinishlari tasavvurini uyg'otishi shubhasiz. Chunki o'quvchi moda so'zini odatda so'zlashuv usulidagina ko'p qo'llaydi va kiyinish ma'nosini ifodalaydi. Va o'quvchi keyingi gapda shu ma'noga oid tasvir kutadi. Lekin kontekstdan moda so'zining bu gapdagi ma'nosini anglab olishi mumkin bo'ladi.

" the most harmless of all **the lion-hunters** that pursue their quarry from the rarefied heights of Hampstead to the nethermost studios of Cheyne Walk." tasviri "**mashhur odamlarga yaqinroq bo'lishni xohlovchilarning** eng beg'arazi" sifatida soddalashtirib beriladi.² Bunda

² Uilyam Somerset moem. Oy va sariq chaqa. R. Inog'omov tarjimasi. www.ziyouz.com kutubxonasi. 2008. B. 6



deskriptiv usul vositasida pragmatik sifatni saqlab qolishga harakat qilingan. O'quvchida chalg'ish holatini keltirib chiqarmaslik uchun aniq birikmalar tasviriy ifodalar bilan berilgan.

Boshqa misolda "in the country" so'zi "poytaxtdan yiroqda" shaklida beriladi yoki "Mudie's Library" so'zining "poytaxt kutubxonasi" tarzida kelganini ko'rishimiz mumkin.³ Bunday tasvirlarda modulyatsiya yoki adaptatsiya tarjima usullaridan foydalanish asar tarjimasidagi kontekstual noaniqlikni kamaytirish va o'quvchiga tugal ma'noni ochib berish orqali mutolaa jarayonini ham osonlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ma'lum jinsga aloqador ifodalarni berishda yozuvchi yondashuvi, kontekst ma'nosini to'la anglab yetilgan holdagina pragmatik adekvatlikka erishish mumkin. Tahlil qilingan asarda tarjimon buni yaxshi uddalagan. Asar vositachi til bilan tarjima qilinganligi bir qator savollarni tug'dirsada asar badiiy ifodasi va yozuvchi uslubi saqlab qolingan.

Ta'kidlash kerakki, ayollar obrazini badiiy tarjimada ochib berish bizga ma'lum bir millatning ayolga nisbatan munosabatini tanishtirish deganidir. Bu jarayonda ba'zida gender jihatdan o'ta ta'sirchan berilgan, yoki kamsitish xususiyatiga ega iboralarni yumshatishga yoki muqobilini topishga ham to'g'ri keladi. Shu o'rinda gender inklyuziv usulni tarjimada, xususan badiiy tarjimada saqlash darajasi borasida ham ilmiy asoslarga ehtiyoj mavjud.

Umumiy olib aytadigan bo'lsa, obraz badiiy tasviri asarning butun syujetiga nisbatan o'quvchida munosabatni shakllantiradi. O'quvchi shu tasvirlardan to'plagan ma'lumoti va tasavvurlari orqali keyingi voqealar rivojini tahlil qiladi. Tasvirlarda pragmatik aniqlikni saqlash mutolaa jarayonida yuzaga keluvchi g'alisliliklarning ham oldini olish deganidir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy obraz ifodalari faqatgina tasvir matni emas, butun bir kontekst va obraz xususiyatini hisobga olib tarjima qilinishi kerak deb hisoblaymiz.

References:

1. Uilyam Somerset moem. Oy va sariq chaqa. R. Inog'omov tarjimasi. 2008.
2. Somerset Maugham. The moon and sixpence. Cornell university library. 1931.
3. John Layons. Language and linguistics. Cambridge university press. 1981.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Female_perversion

³ Somerset Maugham. The moon and sixpence. Cornell university library. 1931. P. 23